



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

EVFEMIZMLARNING LINGVISTIK TABIATI VA ULARNING ADABIY NUTQDAGI O'RNI

Mirakhmedova Zilola Erkinovna

Toshkent davlat transport universiteti tadqiqotchisi

zilolamirakhmedova@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada evfemizmlarning lingvistik tabiatni, ularning adabiy nutqdagi o'rni va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada evfemizmlarning semantik, pragmatik va stilistik jihatlari hamda ularning ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liqligi yoritiladi. Turli ilmiy manbalar, jumladan, Otto Jespersen, Jorj Lakoff va Stiven Pinker kabi olimlarning qarashlari asosida evfemizmlarning inson tafakkuriga ta'siri va kommunikativ vazifalari o'rganiladi. Shuningdek, evfemizmlarning tarjima jarayonidagi murakkab jihatlari, ingliz va o'zbek tillaridagi xususiyatlari qiyoziy tahlil qilinadi. Maqola natijalari evfemizmlarning nafaqat yumshatuvchi vosita, balki axborot manipulyatsiyasi, ijtimoiy va siyosiy nutqda ta'sirchan lingvistik element sifatida ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Evfemizm, lingvistika, adabiy nutq, stilistika, semantika, pragmatika, tarjima, kommunikativ vazifa, manipulyatsiya, ijtimoiy muloqot.

Kirish:

Inson nutqi shunchaki axborot yetkazish vositasi emas, balki ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Nutq orqali inson jamiyatdagi muayyan qoidalar va axloqiy me'yordarga rivoja qilishga intiladi. Shu jihatdan, til vositalaridan biri bo'lgan evfemizmlar badiiy va kundalik nutqda muhim o'rin egallaydi. Ular bevosita yoki qo'pol bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan so'z va iboralarni yumshoq, odob doirasida ifodalashga xizmat qiladi. Ular faqatgina so'zlarni almashtirish vositasi emas, balki jamiyat madaniyati, axloqiy qarashlari va ruhiy holatini aks ettiruvchi til elementlaridir. Evfemizmlar, ayniqsa, badiiy adabiyotda o'ziga xos stilistik vosita sifatida ishlataladi. Ular muallif uslubini boyitish, obrazlarni yanada tabiiy va ta'sirchan ko'rsatish, o'quvchini muayyan xulosaga yetaklash uchun muhim



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuni o'rganish evfemizmlarning inson tafakkuriga ta'sirini, ularning jamiyatda qanday shakllanib, qanday maqsadlarda qo'llanilishini anglashga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili:

Evfemizmlar tilshunoslikda keng o'rganilgan hodisa bo'lib, ularning tabiat, vazifasi va qo'llanilish doirasi turli ilmiy manbalarda yoritilgan. Evfemizmlar, avvalo, lingvistik hodisa sifatida til tizimida o'ziga xos shakllanish jarayoniga ega. Otto Jespersen evfemizmlarning paydo bo'lishini insoniyatning tabiiy nutqiy ehtiyojlari bilan bog'laydi. Uning fikricha, odamlar har doim og'ir, nojo'ya yoki nomaqbul tushunchalarni yumshoqroq ifodalashga intilgan va bu til rivojining ajralmas qismi hisoblanadi.[1] Otto Jespersen evfemizmlarni inson nutqiy ehtiyojlari bilan bog'laydi, ammo bu jarayonga faqat tabiiy ehtiyoj sifatida qarash bir tomonlama yondashuv bo'lishi mumkin. Chunki evfemizmlar til tizimida ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar ta'sirida ham shakllanadi. Ular faqat yumshoq ifoda vositasi emas, balki manipulyativ yoki stilistik maqsadlarda ham qo'llanilishi mumkin.

Tilshunos Jorj Lakoff esa evfemizmlarni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganib, ularni inson tafakkurining va madaniy axloqiy cheklovlarining mahsuli deb hisoblaydi. Uning fikricha, evfemizmlar til orqali inson ongida muayyan ma'naviy va axloqiy chegaralarni shakllantirishga xizmat qiladi[2]. Lakoff evfemizmlarni inson tafakkuri va madaniy axloqiy cheklovlarining mahsuli deb hisoblab, ularning siyosiy va ommaviy nutqda manipulyativ vosita sifatida ishlatilishini ta'kidlaydi. Biroq, evfemizmlar faqat manipulyatsiya uchun emas, balki nutq madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy muloqotni yumshatish kabi tabiiy ehtiyojlardan ham kelib chiqadi.

Evfemizmlarning funksional xususiyatlari oид tadqiqotlar orasida Stiven Pinkerning o'z asari e'tiborga loyiqidir. Pinker evfemizmlarni insonning ijtimoiy muhitga moslashish usullaridan biri sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, evfemizmlar odamlarga o'z his-tuyg'ularini boshqalar uchun noqulaylik tug'dirmasdan ifodalashga yordam beradi. Shu bilan birga, Pinker evfemizmlarning ba'zan axborot buzilishi yoki so'zning asl ma'nosini yo'qotishiga sabab bo'lishi mumkinligini ham ta'kidlaydi.[3] Stiven Pinker evfemizmlarni ijtimoiy muhitga moslashish vositasi sifatida ko'rib, ularning muloqotni yumshatishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Biroq, u evfemizmlar ba'zan



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

axborot buzilishiga yoki asl ma'nuning yo'qolishiga olib kelishi mumkinligini ham qayd etadi, bu esa ularning samaradorligi va to'g'ridan-to'g'ri muloqotga ta'siri haqida babs yuritishga asos bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida S.Xaydarovaning tadqiqotida ingliz va o'zbek badiiy asarlarida uchraydigan evfemizmlarning qiyosiy tahlili hamda ularning tarjima jarayonidagi o'ziga xosliklari o'r ganilgan. Muallif evfemizmlarning har ikki til tizimidagi lingvistik va stilistik xususiyatlarini solishtirib, ularning madaniy omillarga bog'liqligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda evfemizmlarning konnotativ ma'nolari, tarjimada ekvivalent topish muammolari va ularning badiiy matndagi funksional yuklamasi batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, muallif evfemizmlarning tarjimada adekvat yetkazilishi uchun qo'llaniladigan usullarni, jumladan, ekvivalent almashtirish, tavsifiy tarjima va kontekstga mos moslashuv usullarini tahlil qilgan.[4] Uning tadqiqoti evfemizmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi lingvistik hamda stilistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilib, ularning tarjima jarayonidagi murakkab jihatlarini yoritadi. Muallif evfemizmlarning madaniy kontekstga bog'liqligini ta'kidlab, tarjimada ekvivalent topish, tavsifiy tarjima va moslashuv kabi usullarning ahamiyatini ochib beradi. Bu yondashuv evfemizmlarning badiiy matndagi funksional yuklamasini anglash va ularning mazmunini boshqa tilga to'g'ri yetkazish muhimligini ko'rsatadi.

M.Mardanova va Sh.Davlatovalarning tadqiqotida evfemizmlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy nutqdagi roli tahlil qilingan. Mualliflar evfemizmlarni semantik jihatdan yumshatuvchi vosita sifatida ko'rib, ularning muloqot madaniyati va axborot uzatish jarayonidagi ahamiyatini yoritadilar. Tadqiqotda evfemizmlarning turli tillarda shakllanishi, ularning tarjima jarayonidagi o'ziga xos jihatlari hamda madaniy kontekstga bog'liqligi ta'kidlanadi. Shuningdek, mualliflar evfemizmlarning badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalarida qanday maqsadlarda qo'llanilishini misollar orqali tahlil qilib, ularning kommunikativ vazifasini ochib bergenlar.[5] Ular evfemizmlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning muloqot madaniyati, tarjima jarayoni va madaniy kontekstga bog'liqligini yoritadilar. Tadqiqotda evfemizmlarning badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalarida qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilib, ularning kommunikativ vazifasi ochib berilgan. Ilmiy manbalardagi tahlillar evfemizmlarning til



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

tizimidagi ahamiyatini, ularning madaniy, psixologik va ijtimoiy jihatlarini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada evfemizmlarning lingvistik tabiatni, adabiy nutqdagi o‘rni va funksional xususiyatlarini tahlil qilish uchun bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Taqqoslash va qiyosiy tahlil metodi orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning lingvistik hamda stilistik xususiyatlari solishtirildi. S.Xaydarovaning tadqiqotiga tayangan holda tarjimada evfemizmlarning adekvat yetkazilish usullari, jumladan, ekvivalent almashtirish, tavsifiy tarjima va kontekstga mos moslashuv usullari o‘rganildi. Deskriptiv analiz metodi asosida Otto Jespersen, Jorj Lakoff va Stiven Pinker kabi tilshunoslarning evfemizmlar haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv evfemizmlarning inson tafakkuriga, nutq madaniyatiga va ijtimoiy muhitga ta’sirini chuqurroq anglash imkonini berdi. Shuningdek, M.Mardanova va Sh.Davlatovaning tadqiqotlariga tayangan holda evfemizmlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlari hamda ularning muloqot madaniyati va axborot uzatish jarayonidagi o‘rni o‘rganildi.

Strukturaviy-semantik tahlil usuli orqali evfemizmlarning semantik o‘zgarishlari, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllanishi hamda badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalarida qo’llanilishi o‘rganildi. Bu usul evfemizmlarning kommunikativ vazifasini aniqlash va ularning turli matnlar kontekstida qanday ma’no yuklayotganini tushunishga yordam berdi. Tadqiqotda shuningdek, evfemizmlarning lingvistik xususiyatlari va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilish uchun empirik yondashuvdan foydalanildi. Turli tillarda shakllangan evfemizmlarning madaniy omillarga bog‘liqligi hamda tarjima jarayonidagi muammolar tahlil qilindi. Ushbu metodlar yordamida evfemizmlarning til tizimidagi o‘rni va ularning madaniy, psixologik va ijtimoiy jihatlari ilmiy asosda yoritildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama: Tadqiqot natijalari evfemizmlarning lingvistik, stilistik va pragmatik jihatlari murakkab va ko‘p qirrali hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Evfemizmlar faqat bevosita yoki nojo‘ya mazmunni yumshatuvchi vosita emas, balki madaniy, ijtimoiy va siyosiy omillar ta’sirida shakllanadigan lingvistik birliklar hisoblanadi. Otto Jespersen evfemizmlarni inson nutqiy ehtiyojlari bilan bog‘lagan



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

bo'lsa, Jorj Lakoff ularning tafakkur shakllanishi va axloqiy cheklovlar o'rnatishdagi rolini tahlil qilgan. Stiven Pinker esa ularning ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida qo'llanishini ta'kidlagan. Ushbu fikrlarning barchasi evfemizmlarning til tizimidagi o'rmini yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratdi. O'zbek va ingliz tillaridagi evfemizmlarning qiyosiy tahlili ularning har ikkala til tizimida ham o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Xaydarova tadqiqotida ta'kidlanganidek, evfemizmlar tarjima jarayonida ekvivalent topish qiyin bo'lgan til birliklaridan biri bo'lib, ularning konnotativ ma'nosi ko'pincha madaniy kontekstga bog'liq bo'ladi. Tarjimada ekvivalent almashtirish, tavsifiy tarjima va moslashuv kabi usullar qo'llanilishi aniqlangan bo'lsa-da, har bir usulning samaradorligi asarning umumiyligi mazmuni va uslubiy xususiyatlariga bog'liq ekani kuzatildi.

M.Mardanova va Sh.Davlatova tadqiqotlari asosida evfemizmlarning ijtimoiy nutqdagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, evfemizmlar nafaqat badiiy adabiyotda, balki ommaviy axborot vositalarida ham muhim stilistik va kommunikativ vosita sifatida keng qo'llaniladi. Ayniqsa, siyosiy nutq va rasmiy matnlarda evfemizmlar manipulyativ vosita sifatida ishlatilishi kuzatildi, bu esa ularning faqat yumshatuvchi emas, balki axborotni o'zgartirish yoki ijtimoiy idrokni boshqarish kabi funksiyalarga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Ular inson ongida axloqiy va madaniy normalarni shakllantirishga yordam beradi, shu bilan birga, ba'zi holatlarda asl ma'noni noaniq ifodalash yoki axborotni buzib ko'rsatishga xizmat qilishi mumkin. Bu esa evfemizmlarni o'rganish jarayonida ularning kontekstga bog'liqligini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Evfemizmlarning lingvistik va ijtimoiy muhitdagi o'rmini kengroq ochib berdi hamda ularning adabiy nutqdagi stilistik va pragmatik vazifalarini aniqlashga yordam berdi. Fikrimizcha, evfemizmlarni faqat semantik jihatdan emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekst nuqtayi nazaridan ham o'rganish muhimdir.

Xulosa:

Tadqiqot natijalari evfemizmlarning lingvistik, stilistik va pragmatik jihatlari murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatdi. Evfemizmlar nafaqat bevosita yoki nojo'ya mazmunni yumshatuvchi vosita, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar ta'sirida shakllanadigan lingvistik birliklar sifatida ham namoyon bo'ladi. Otto Jespersen ularni inson nutqiy ehtiyojlari bilan bog'lagan bo'lsa, Jorj Lakoff ularning tafakkur



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

shakllanishi va axloqiy cheklovlar yaratishdagi rolini tahlil qilgan, Stiven Pinker esa ularni ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida baholagan. Qiyoziy tahlillar shuni ko'rsatdiki, evfemizmlar tarjimada ekvivalent topish qiyin bo'lgan til birliklaridan biri bo'lib, ularning ma'nosi madaniy kontekstga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, siyosiy nutq va rasmiy matnlarda evfemizmlar manipulyativ vosita sifatida ham ishlatalishi mumkin. Evfemizmlarning lingvistik xususiyatlari, ularning ijtimoiy va psixologik ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari ularning til tizimidagi o'rmini yanada kengroq olib berdi. Ushbu natijalar evfemizmlarni faqat semantik jihatdan emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekst nuqtayi nazaridan ham o'rganish muhimligini tasdiqlaydi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Otto Jespersen "Language Its Nature, Development, and Origin" London and New York. Transferred to Digital Printing 2007. - 34p.
2. George Lakoff "Women, Fire, and Dangerous Things" The University of Chicago Press: Chicago and London. 1990. -631p.
3. Steven Pinker "The Stuff of Thought» Princeton University Library. New York. 2013-499p.
4. Xaydarova S. INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ASARLARIDA UCHRAYDIGAN EVFEMIZMLARNING QIYOSIY VA TARJIMAVIY TADQIQI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2021.
5. Mardanova Mohira Davronovna, & Davlatova Shaxnoza Muhammadiyevna. (2024). TILSHUNOSLIKDA EVFEMIZMLARNI O'RGANISHNINING. International Conference on Linguistics, Literature and Translation (London), 2, 22–25.